



ARTICLE INFO

Received: 04th January 2023
Accepted: 14th January 2023
Online: 16th January 2023

KEY WORDS

Termin, terminologiya, atama, so'z, yuridik termin, qonunchilik.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YURIDIK TERMINLAR TIZIMI VA ULARGA QO'YILGAN TALABLAR

¹G'ulomova Ziyodaxon Musurmonqul qizi
Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti,
²Niyazov Ravshan Turakulovich
Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7539803>

ABSTRACT

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida termin va terminologiya masalasi tadqiq qilingan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida huquqiy terminlar ya'ni yuridik terminlartizimi va ularga qo'yilgan talablar to'g'risida ma'lumot beradi.

Qonun tili leksikasining asosiy qatlamini yuridik terminlar tashkil etadi. Yillar davomida shakllangan va mustaqillik sharofati ila takomillashib kelayotgan qonunchilikda qo'llanilib kelayotgan lug'aviy birliklar, terminlar rasmiylik bo'yog'i bilan ajralib turadi. Bunday boy lug'aviy qatlam katta milliy qadriyatimiz hamda o'zbek davlatchiligi va huquqi borligining guvohi va shohididir.

Huquq tarmoqlariga oid kashfiyotlarning sifati, qonunlarning ustuvorligi bevosita bamosoli ummon bo'lgan til vositalaridan, xususan, terminlardan mohirona foydalanishga ham bog'liqdir. Huquqiy demokratik jamiyatni yanada takomillashtirish sari amaliy qadamlar qo'yilayotgan hozirgi jarayonda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, qonunlarning ustuvorligiga erishish, davlat boshqaruvining izchil va mukammal tizimini joriy etish bilan bog'liq islohotlar ketayotgan bir paytda qonunlar tili va uslubi, yuridik terminologiya, yurisprudentsiya tarmoqlariga oid turli terminologik, orfografik, izohli, entseklopedik lug'atlar va qo'llanmalarining "yangi avlodi"ni yaratish eng dolzarb masalalardan bo'lib turibdi¹.

Mustaqil davlatchiligimiz yanada takomillasha borayotganligi tufayli inson huquqlari bilan bog'liq xilma-xil qonunlarning qabul qilinishi, o'z navbatida, huquqqa oid minglab yangi terminlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda, chunki ijtimoiy hayotda har qanday tushuncha yoki hodisaning tug'ilishi uning in'ikosi sifatida terminlarning boyishiga sabab bo'ladi. Biroq yuzaga kelayotgan huquqqa oid tushunchalar, tilda so'z yoki termin sifatida o'z in'ikosini topar ekan, ular milliy tilning o'z qonuniyatlari asosida ifodalanmog'i va shakllanmog'i shart. Aytaylik, tanlanayotgan va kundalik muloqotga kirib borayotgan yuridik terminlar voqea-hodisa va belgi-tushunchalarning aniq nomini ifodalayaptimi, boshqa tillardan o'zlashayotgan terminlarning o'zbek tilidagi muqobili adabiy til me'yorlariga muvofiq kelayaptimi yoki yo'qmi? Bu masalalar yuristlar bilan filologlar hamkorligida o'zining aniq yechimini topsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Qonun ijodkorlari davlatchilik, qonunchilik

¹ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: Ёзувчи, 1987.



hamda yurisprudentsiya tarmoqlariga oid bilimlarni davlat tili zaminida, shu tilning o'ziga xos qonuniyatlari, uslubiyati va terminologiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganmoqlari hayot taqozosidir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan buyon 400 ga yaqin qonun qabul qilindi. Bu albatta, ijobiy hol. Chunki qabul qilingan har bir qonun inson farovonligi va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Qabul qilingan bu qonunlarning aksariyati adabiy til me'yorlariga mos va muvofiq tayyorlangan bo'lsa-da, ba'zi qonunlarimizning moddalari hamon tahrir talab, lisoniy jihatdan tugal emasdir.

Qonun tili adabiy tilning tarkibiy qismi bo'lib, u o'ziga xos leksik, terminologik, grammatik, uslubiy me'yorlarni talab etadigan til ko'rinishidir.

Qonun matnida birgina so'zning yoxud birgiga terminning, hatto birgina tinish belgisining noto'g'ri qo'llanilishi uslubiy g'alizliklarni va noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham parlament tasdig'idan o'tayotgan har bir qonun, uning g'ar bir moddasi adabiy til me'yorlariga muvofiq tuzilmog'i shart. Chunki qonunlar va ularning har bir moddasi mohiyatida inson taqdiri va omili yotadi.

Huquqqa oid turli manbalarda (qonunlar, farmonlar, darsliklar, turli o'quv qo'llanmalar, risolalar, huquqqa oid jurnallar, terminologik lug'atlar va h.k.) bir tushuncha uchun hamon bir necha terminning qo'llanilishini oqlab bo'lmaydi. Masalan: hokimlik-hokimiyat, gumondor-gumon qilinuvchi, ko'rsatma-ko'rsatuv, hissadorlik jamiyati-aktsiyadorlik jamiyati, jinoyat ishi-jinoiy ish, tomonlar-taraflar, yuqori palata-senat, quyi palata-qonunchilik palatasi va h.k. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Huquqshunoslarimiz terminning oldiga qo'yiladigan talablar hamda adabiy til me'yorlarini yaxshi anglab yetmaganliklari natijasida bunday holatlar yuzaga kelmoqda. Vaholanki, terminlar bamisoli odamlar kabi o'z pasportiga ega bo'lgan rasmiylashgan, davlat idoralari tasdig'idan o'tgan so'zlar bo'lishi kerak, shundan keyingina ijtimoiy hayotga yo'llanma olmog'i lozim. Jahon tilshunoslik fanida terminning mohiyati to'g'risida umume'tirof etilgan qoidalar mavjud. Ularning biri shunday: Termin nominativ vazifani bajaradi. Terminning ma'nosi tushunchaga teng bo'lishi shart. Chunki bir terminologik tizimda termin bir ma'noli, ya'ni monosemantik bo'lgani uchun uning ma'nosi tushunchaga teng keladi. Ya'ni terminlar bir ma'noni ifodalovchi maxsus rasmiy so'zlardir.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tilda yuridik tushunchalar qancha bo'lsa, terminlar ham shuncha bo'lishi kerak. Bir terminologik tizimda sinonim yoki dubletlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Demak, yuridik terminlarni tartibga solish va bir xillikka keltirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Buning uchun yuridik terminlarning orfografik va izohli lug'atlarini tuzish yoki yurisprudentsiyaning har bir tarmog'i bo'yicha izohli, ikki tilli, entsiklopedik lug'atlarni nashr etish ko'zlangan natijani beradi².

Ba'zi qonun moddalarida oddiy terminlarni qo'llashda va izohlashda ham xatoliklar va g'alizliklar uchraydi. Masalan, "Tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish..." deb izohlanadi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida. Modda tarkibidagi sharmanda so'zi uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llanilgan. Qonun tuzuvchi ijodkor bu matnni tuzishda mavjud "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan foydalanishni xayoliga ham keltirmagan ko'rinadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" ni

² Жуманиёзов Р., Салимоа С. Гоявий тарбияда нотиклик санъати. – Т.: Ўзбекистон, 2002



qo'limizga olib varaqladik. Tuhmat so'ziga nihoyatda chiroyli izoh berilgan: Birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo, bo'hton (O'TIL, II tom, 241-bet)

Yer yuzida 3000 ga yaqin til mavjud bo'lsa-da, lekin sof bir til so'zlaridangina iborat bo'lgan til yo'q. Har bir tilda muloqot, munosabat tufayli u yoki bu tildan so'zlar o'zlashtiriladi. Natijada tilda o'zlashgan qatlam yuzaga keladi. Shuningdek, o'zbek tili leksikasida ham o'z qatlamdan tashqari boshqa tillardan (albatta, qarindosh bo'lmagan tillardan) o'zlashgan so'zlar qatlami mavjuddir. Ammo ba'zi so'z va terminlar rus tili va u orqali boshqa yevropa tillaridan ko'r-ko'rona калъка qilish asosida qabul qilinganligi tufayli o'zbek adabiy tilining me'yor va mezonlariga mos kelmaydi. Natijada g'ayritabiiy yuridik terminlar yuzaga kelib qoladi. Masalan, Jinoyat kodeksi termini rus tilidan noto'g'ri tarjima qilingan (Ugolovnyy kodeks). Bu termin aslida o'zbek adabiy tili me'yorlariga muvofiq «Jinoyat va jazo haqidagi qonunlar majmui» yoki «Jinoyat va jazo kodeksi» tarzida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Rus tilidan калъка qilingan Jinoyat kodeksi termini esa jinoyatga tegishli kodekslar (qonunlar majmui) degan tushunchani anglatadi. Yoki "Jinoyat huquqi" atamasi ham uslubiy g'alizdir. Mohiyatiga e'tibor berilsa, jinoyatga berilgan huquq ma'nosi anglashiladi. O'zbek tili nuqtai nazaridan bu nomlanishni "Jinoyat va jazo huquqi" yoki "Jinoyat va jazo asoslari" deb atalishi maqsadga muvofiqdir. Yoxud rus tilidagi deputatskoe rassledovanie termini deputat taftishi deb tarjima qilinganligi adabiy til me'yoriga to'g'ri kelmaydi. Ma'lumki, taftish so'zining ruschasi reviziyadir.

Mazkur terminni deputat tekshiruvchi deb tarjima qilish o'zbek adabiy tili me'yorlariga to'g'ri keladi va tugal fikr anglatadi.

Ayniqsa, "Jinoyat ijroiya huquqi" predmetining nomlanishi o'zbek tiliga noto'g'ri tarjima qilinganligi tufayli kulgili holat yuzaga kelganligini anglash qiyin emas. Ya'ni mazkur atamaning ma'nosiga e'tiborni qaratsak, jinoyatlarni ijro etish, amalga oshirish huquqi degan ma'nolarni anglatadi. Aslida esa o'zbek adabiy tili me'yorlariga muvofiq bu atama "Jazoni ijro etish huquqi" yoki "Jazo ijrosi" shaklida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Bir vaqtlar bunday ko'rinishdagi atamalar rus tilidan ma'noviy tarjima qilinmasdan, noto'g'ri tarjima qilingan va fanga kiritib yuborilgan. Vaqtlar o'tishi bilan bunday atamalar odatiy holga kirib qolgan. Bu o'z-o'zidan huquq sohasidagi mutaxassisning til qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirmaganligidan dalolat beradi. Bunday holat savodsizlik oqibati natijasidir. Donishmandlarning fikricha "til qoidalarini yaxshi bilmaslik taqdirning oliy jazosidir"³.

Shuning uchun til qonuniyatiga muvofiq o'zbek tiliga qaysi tildan so'z o'zlashtirilgan ekan, avval o'zbek tilining o'zidan bunday so'zlarning muqobilini qidirish lozimdir. Agar boshqa tillardan o'zlashayotgan so'zlarning muqobili o'zbek tilidan topilmasa, so'zma-so'z emas, balki ma'noviy tarjima qilish maqsadlidir.

Muayyan til terminologiyasining rivojlanishi jamiyat hayoti va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Shuningdek, bir tilning terminologik bazasini shakllantirish murakkab mashaqqatli jarayon bo'lib, uni yaratuvchilardan maxsus bilim va ma'lum malaka bilan bir qatorda umumiy madaniyat, bilimdonlik benuqson savodxonlikni ham talab etadi. Qonun va huquq tili, huquqiy terminologiya haqida gapirganda shuni ta'kidlash kerakki,

³ Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1972.



qonun ijodkorligi madaniyati qat'iy professional tilni va shu bilan bir qatorda uning soddaligi tushunarligi va aholining barcha qatlamlari uchun ochiqligini nazarda tutadi. Normativ-huquqiy hujjat matnida qo'llanilgan atmalarning noto'g'riligi qonun ma'nosini buzib ko'rsatish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu borada H.A Kerimov shunday fikr bildiradi "Noto'g'ri yoki o'rinsiz qo'llangan so'z yoki ibora fikr va uning matn ifodasi o'rtasidagi tafovut ba'zan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa qonun ijodkorligi sohasida⁴."

Yuridik atamalardan to'g'ri foydalanish qonun ijodkorligi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, bunday so'zlar qonunchilik akti tilini saqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, amaliyotda qo'llash qulaydir.

Qonunchilik fikrini va normativ huquqiy hujjatlar shaklini taqdim etishda muayyan talablarga rioya qilish va qonun ijodkorligi sohasi uchun maxsus ishlab chiqilgan til vositalaridan foydalanish kerak. Bu borada quyidagi tamoyillarga qat'iy amal qilish talab etiladi.

1. Belgilangan huquqiy konsepsiya mazmunini to'g'ri va bir ma'noda aks ettirish;
2. Tushunarsiz, noaniq atamalardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi
3. Huquqiy hujjat matnida ritorik shakllar va majoziy ma'noda qo'llaniladigan so'zlarni ishlatmaslik. Chunki atamalarning bevosita va ma'lum ma'nosida qo'llanmaydi. Bu atama har doim bir ma'noli bo'lib, uning ma'nosi matnga mos ravishda turlicha o'zgarmaydi. Semantik noaniqlik mavjud bo'lgan so'z maxsus atushunchani bildirish vazifasini bajara olmaydi.
4. Normativ huquqiy hujjat matnida eng avvalo keng tadbiiq etilayotgan va faol qo'llanadigan atamalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.
5. Huquqiy terminologiyadan foydalanishdagi barqarorlik va beqarorlik. An'anaviy atamalardan voz kechib, bir xil tushunchalarni bildiruvchi yangi atamalarni kiritish o'rinli emas.
6. Atamalarning qo'llanishida maksimal qisqalik. Boshqa tillardan olingan atamalar milliy yuridik tilga putur yetkazmasligi lozim.
7. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tuzilgan atamalar, qisqartmalarni ortiqcha ishlatmaslik. Normativ huquqiy hujjat tilida faqat adabiy tilda mustahkam o'rin olgan qisqartmalardangina foydalanish tavsiya etiladi.
8. Muqobili mavjud bo'lgan taqdirda o'zlashmalardan o'rinsiz foydalanmaslik.

Demak, yuridik atama qonun chiqaruvchining xohish irodasini ifodalovchi, qonun hujjatlari matnlarida bir xil qo'llanadigan, aniq ma'noga ega bo'lgan huquqiy tushunchaning umumlashgan nomi bo'lgan so'z yoki so'zlarning turg'un birikmasi bo'lib, u funksional barqarorligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay har bir til tizimining huquqiy terminologiyasi faqat o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Huquq ijtimoiy munosabatlarning eng muhim tartibga soluvchisidir. Huquqning eng muhim belgilari rasmiy aniqlik va majburiylik xususiyatidir. Rasmiy aniqlik huquqning mavjudligida ifodalanib, lingvistik vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydigan jarayondir. Huquqiy tartibga solishning samaradorligi ko'p jihatdan normativ hujjatlarning sifati ularda qonun chiqaruvchi organlarning vazifasi juda muhim ekanligini ko'rsatadi. Mashhur rus huquqshunosi I.A.Pokrovskiy ta'kidlaganidek, "Rivojlanayotgan inson shaxsi qonunga qo'yadigan birinchi

⁴ Иминов, Д.А. Законотетельная техника : науч.-метод. и учеб. Пособие.М.:НОРМАИНФРА-М 1998.



talablardan biri bu muayyan huquqiy normalarga boʻlgan talabdir". Bundan tashqari uning fikricha, huquqiy normalarning aniqligisiz hech qanday huquq tushunchasini tasavvur etib boʻlmaydi⁵.

Yana bir mashhur fransuz huquqshunosi F.Jenyaning fikricha, qonun ijodkorligi va huquqni qoʻllash faoliyatida faqat qoʻllanadigan. Qonunchilik tafakkurini lingvistik shaklda gavdalantirishning maxsus vositalari va usullari mavjud. Bu vositalar qonun oldida turgan alohida vazifalar, mavzuni koʻrsatishning oʻziga xos usuli, qonun chiqaruvchi fikrini ifodalash uchun tilning maxsus lugʻat tarkibi tufayli adabiy nutqning mustaqil qonunchilik uslubini ajratib koʻrsatishga asos boʻladi⁶.

Yuridik adabiyotlarda ushbu taqdimot uslubi "qonun tili" sifatida tavsiflanadi. Huquqiy hujjatlar tilining oʻziga xos xususiyatlari haqida gapirilganda, baʼzilar mualliflar uni qonun tili, boshqalari esa maxsus huquqiy til mavjudligi haqida gapiradi. Biroq, yuridik tilning oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisidagi qoida olimlar orasida juda koʻp bahs-munozaralarga sabab boʻladi. Taniqli venger huquqshunosi I.Szabonning fikricha "yuridik til" deb ataladigan narsa mohiyatan maxsus iboralar, texnik atamalar bilan toʻldirilgan oddiy tildan boshqa narsa emas, yaʼni til vositalari aniqroq ishlatilsa bas. Ushbu pozitsiyani qoʻllab-quvvatlagan E.E. Pryashnikov va E.M. Smorgunovanning taʼkidlashicha, qonunchilik tili jamoat faoliyatining turli sohalariga taalluqlidir. Bu xususiyat uni tor ixtisoslashgan sohaga xizmat qiluvchi oʻz lugʻatiga, maxsus terminlogiyasiga ega boʻlgan tillardan ajratib turadi Bu pozitsiya barcha mualliflar tomonidan qoʻllab quvvatlanmaydi. Ularning aksariyati ijtimoiy huquqiy tilning qarama-qarshi nuqtai nazariga amal qiladilar. Darhaqiqat, huquqiy matn ijtimoiy munosabatlarning eng keng doirasi va ularning subyektlari uchun kengaytirilgan boʻladi. Biroq, qonunda maxsus tilning mavjudligini nomlash, ularni turli xil professional yuridik faoliyatning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydilar. Mahalliy normativ-huquqiy hujjatlarning sifati, ularning tilini tahlil qilish asosan huquqiy (qonunchilik) texnologiyasi muammolari doirasida amalga oshiriladi. Aksariyat mualliflar huquqiy texnikani ishlab chiqishda normativ-huquqiy hujjatlarni roʻyxatga olish va tizimlashtirishda qoʻllanadigan vositalar, texnikalar va qoidalar toʻplami deb hisoblashadi⁷.

V.N.Kartashov qoʻshimcha ravishda, yuridik texnikani kengroq talqin qiladi. Yuridik texnikaning eng muhim tarkibiy elementlaridan biri, muhim vosita sifatida koʻpchilik tadqiqotchilar yuridik terminologiyaga murojaat qiladilar. Termin har qanday fan yoki hunarda qabul qilingan maxsus ibora yoki belgidir. Bundan tashqari atamalar maxsus soʻzlar emas, balki maxsus funksiyadagi soʻzlardir. Har bir fan har bir bilim sohasining oʻz atamalari bor. Termin ostida qonun tiliga nisbatan huquqiy maʼnoga ega boʻlgan soʻz yoki iboralar tushuniladi. Huquqiy atmalarning xususiyatlari va roʻlidan kelib chiqib aksariyat mualliflar ularni yuridik texnikaning asosiy vositalari (huquqiy va texnik vositalar) sifatida tavsiflaydilar. Bu albatta huquqiy voqelikda ushbu hodisaning toʻgʻri tavsifidir. Ammo, bizning fikrimizcha terminologiyaning bunday tavsifi yetarli emas, chunki u terminologiyaning roli va oʻrnini faqat bir, rasmiy huquqiy tomondan belgilaydi. S.S.Alekseyev oʻz asarlarida kengroq tushuncha sifatida "yurisprudensiya" terminini qoʻllagan, u yuridi texnikani ham, jinoyatlarni

⁵ Керимов. Д.А. Культура и техника законодательства. М.:юр.лит.,1991

⁶ Карташев.В.Н. Юридическая техника, тактика, стратегия и технология. Н.Новгород ,2000

⁷ Покровский И.А. Основнке проблемы гражданского права. М.: Статут, 2013



tergov qilish texnikasini ham (kriminologiya), sud ishlarini yuritish texnikasi va hujjatlarni yuritish texnikasini ham tushunadi⁸.

Yuridik atamalarning muhim xususiyati ularning yaqin aloqasi hisoblanadi. Shuning uchun ularning rivojlanishi huquq nazariyasi va umuman huquqiy tartibga solishning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Keyingi yillarda jahon miqiyosida ichki davlatchilikning kengayishi, jamiyatni demokratlashtirish va huquq fanining rivojlanishi bilan qonun hujjatlarida qonun ustuvorligi, ijtimoiy davlat, inson huquqlari va boshqa shu kabi atamalar keng tarqaldi. Tabiiyki, ularning konstitutsiyaviy o'rnini mustahkamlash muayyan ilmiy nazariy asoslashni va umuman huquq fanini rivojlantirishni talab etadi. Zero, yuridik atamalarni nafaqat texnik vosita balki eng muhim ilmiy huquqiy kategoriya sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi.

Shunday qilib, huquqiy terminologiya va u bilan belgilanadigan tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zida ular o'rtasida fundamental farqlar kuzatiladi. Huquqiy terminologiya yuridik texnikaning eng muhim vositasi, konsepsiyasini ilmiy jihatdan qonunni nazariy jihatdan tavsiflovchi vosita sifatida ko'rib chiqadi.

References:

1. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: Ёзувчи, 1987.
2. Жуманиёзов Р., Салимоа С. Ғоявий тарбияда нотиқлик санъати. – Т.: Ўзбекистон, 2002
3. Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1972.
4. Иминов. Д.А. Законотетельная техника: науч.-метод. и учеб. Пособие.М.: НОРМАИНФРА-М 1998.
5. Керимов. Д.А. Культура и техника законодательства. М.: юрид. лит., 1991.
6. Карташев. В.Н. Юридическая техника, тактика, стратегия и технология. Н. Новгород. 2000.
7. Покровский И.А. Основнқе проблемы гражданского права. М.: Статут, 2013.
8. Pazilova N. "TEACHING PHARMACOLOGICAL TERMINOLOGY TO COLLEGE STUDENTS". International Scientific Journal Theoretical and Applied sciences. Philadelphia, USA. 30.11.2020.
9. Pazilova N. "Teaching and learning terminology in secondary education through language". International Journal for Innovative Engineering and Management Research. Volume 10 Issue 03, Mart 2021.

⁸ Толстик В.А. Юридическая терминология. России, 2012